

**RASSOM O‘KTAM SAIDOV IJODIDA SHARQ FALSAFASI VA O‘ZIGA XOS
KOMPOZITSION YECHIM**

Laziz Ubaydullayev Jalolovich

Qarshi davlat universiteti “San’atshunoslik“ Fakulteti

Dizayn va rangtasvir kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rassom O‘ktam Saidov ijodi haqida so‘z borgan. Rassom asarlarining kompozitsion yechimi va badiiy tahlili batafsil yoritilgan. Kartinalarda ranglar uyg‘unligi, obrazlar joylashuvi, ramziy detallar hamda falsafiy mazmunning badiiy ifodasi ochib berilgan. Muallifning daraxt, tosh va o‘simlik kabi timsollar orqali insonning hayot mazmuni, intilish va ruhiy poklanish g‘oyalarini tasvirlash mahorati keng yoritilgan. Shuningdek, asarlardagi rang kontrasti va markaziy kompozitsiyaning tomoshabinga ruhiy-ta’sirchan kayfiyat berishdagi o‘rni tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompozitsion yechim, rang tasviri, ramziylik, falsafiy mazmun, badiiy obraz, daraxt timsoli, intilish, ruhiy poklanish, ranglar uyg‘unligi, tasviriy san’at.*

**ВОСТОЧНАЯ ФИЛОСОФИЯ И СОБСТВЕННОЕ КОМПОЗИЦИОННОЕ
РЕШЕНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУДОЖНИКА ОКТАМА САИДОВА**

Лазиз Убайдуллаев Джалолович

Карский государственный университет, факультет Искусствоведения

доцент кафедры дизайна и живописи

Аннотация: *В данной статье рассматривается творчество художника Октама Саидова. Подробно описывается композиционное решение и художественный анализ работ художника. Картины демонстрируют гармонию цветов, расположение образов, символические детали и художественное выражение философского содержания. Широко подчеркивается мастерство автора в изображении смысла человеческой жизни, стремлений и идей духовного очищения посредством таких символов, как деревья, камни и растения. Также анализируется цветовой контраст в работах и роль центральной композиции в создании духовного и эмоционального настроения у зрителя.*

Ключевые слова: *композиционное решение, цветное изображение, символизм, философское содержание, художественный образ, символ дерева, стремление, духовное очищение, цветовая гармония, изобразительное искусство.*

**EASTERN PHILOSOPHY AND HIS OWN COMPOSITION SOLUTION IN THE WORK
OF THE ARTIST OKTAM SAIDOV**

Laziz Ubaydullayev Jalolovich

Karshi state university, faculty of art Studies

Associate professor, department of Design and painting

Annotation: *This article discusses the work of the artist Oktam Saidov. The compositional solution and artistic analysis of the artist's works are described in detail. The paintings reveal the harmony of colors, the arrangement of images, symbolic details, and the artistic expression of philosophical content. The author's skill in depicting the meaning of human life, aspirations, and ideas of spiritual purification through symbols such as trees, stones, and plants is widely highlighted. The color contrast in the works and the role of the central composition in creating a spiritual and emotional mood for the viewer are also analyzed.*

Keywords: *compositional solution, color image, symbolism, philosophical content, artistic image, tree symbol, aspiration, spiritual purification, color harmony, visual arts.*

O'zbek tasviriy san'ati rivojida o'ziga xos uslub va badiiy tafakkuri bilan ajralib turadigan rassomlardan biri O'ktam Saidovdir. Uning ijodida Sharq falsafasi chuqur ildiz otgan bo'lib, bu falsafa nafaqat mavzu tanlashda, balki kompozitsion qurilish, ranglar uyg'unligi va obrazlar talqinida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Sharq falsafasi — bu uyg'unlik, ichki osoyishtalik, tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatni ulug'lovchi qarashlar tizimidir. O'ktam Saidov asarlarida ushbu falsafiy qarashlar ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Masalan, uning ko'plab kartinalarida uchraydigan yolg'iz daraxt obrazi bardavomlik va hayotiy sinovlarga chidamlilik ramzi sifatida talqin etiladi. Suv va osmon esa ruhiy poklanish va cheksizlik timsoli sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari ko'pincha tabiat unsurlari daraxt, suv, qush yoki osmon kengligi inson ruhiyati bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Bu esa tomoshabinni tashqi manzaradan ichki kechinmaga olib kiradi. Kompozitsiya ochiq va keng bo'shliqlarga ega ranglar pastel va sokin ohanglarda berilgan obrazlar statik bo'lsa-da, ichki harakat seziladi.

Rassom ko'pincha aniq voqelikni tasvirlashdan ko'ra, uning ma'naviy mohiyatini ochishga intiladi. Rassom ijodida milliy an'analar zamonaviy badiiy izlanishlar bilan uyg'unlashadi. Sharq miniatyura san'ati elementlari, naqsh va ramzlar zamonaviy kompozitsion yondashuv bilan qayta talqin qilinadi. Natijada tomoshabin uchun tanish bo'lgan obrazlar yangi, falsafiy mazmun kasb etadi. O'ktam Saidov ijodining yana bir muhim jihati bu kompozitsion yangilikdir. Rassom an'anaviy markazlashgan kompozitsiyadan voz kechib, ko'pincha ochiq, dinamik va ko'p qatlamli tuzilmalardan foydalanadi. Bu esa asarlarga harakat va vaqt hissini beradi. O'ktam Saidov ijodida kompozitsiya an'anaviy qoidalardan chetga chiqadi. Rassom markaziy kompozitsiyadan ko'ra erkin joylashuvni tanlaydi, bo'shliqni faol estetik vosita sifatida

qoʻllaydi. Shakl va rang orqali ritm hosil qiladi, bu esa asarlarga falsafiy chuqurlik bilan birga zamonaviy badiiy ifoda bagʻishlaydi.

Oʻktam Saidov ijodidagi “Hayotning maʼnosi” (92x74 mato akril 2024 yil) asari ramziy va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Kompozitsiya va obrazlar asarda markaziy oʻrin egallagan katta daraxt — barqarorlik, hayot davomiyligi va ildizlarning ramzi. Daraxt koʻpincha inson hayoti, avlodlar davomiyligi va tabiat bilan bogʻliqlikni anglatadi. Uning kattaligi va mustahkamligi hayotning abadiylikni eslatadi. Daraxt yonida oʻtirgan bola obrazi esa insonning ichki dunyosi, pokligi va izlanishlarini bildiradi. Bola boshini tizzasiga qoʻyib oʻtirgani oʻyga choʻmish, hayot maʼnosi haqida mulohaza qilish holatini ifodalaydi. Bu holat baʼzan yolgʻizlikni, baʼzan esa oʻz-oʻzini anglash jarayonini koʻrsatadi. Asarning asosiy gʻoyasi — insonning hayotdagi oʻrni va maʼnosini izlash. Daraxt va bola oʻrtasidagi uygʻunlik shuni anglatadiki inson tabiatning bir qismi, hayotning maʼnosi tashqi boylikda emas, balki ichki anglashda. Vaqt oʻtadi, avlodlar almashadi, ammo hayotning mohiyati doimiy izlanishda.

Rassom ijodidagi “Intilish” (40x80 mato moy boʻyoq 2025 yil) asari kuchli ramziy maʼnoga ega boʻlib, insonning ichki kurashi va rivojlanish yoʻlini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Asarda tasvirlangan 11 dona ustma-ust qoʻyilgan toshlar hayotdagi toʻsiqlar, sinovlar va bosqichlarni anglatadi. Toshlarining koʻpligi inson yoʻlida uchraydigan qiyinchiliklar ketma-ketligini bildiradi. Ularning tartibli joylashuvi esa bu sinovlar tasodifiy emas, balki maʼlum bir yoʻl hayot yoʻli ekanini koʻrsatadi. Toshlar orasida pastdan yuqoriga qarab oʻsib chiqayotgan oʻsimlik tomirlari esa hayot kuchi, umid va intilishni ifodalaydi. Tomirlarning qattiq toshlarni yorib oʻtishi har qanday toʻsiqni yengib oʻtishga boʻlgan ichki qudrat ramzi. Eng yuqoridagi tosh ustida unib chiqqan nihol gʻalaba, natija va maqsadga erishish timsolidir. Bu nihol shuni anglatadiki, sabr va harakat bilan inson eng ogʻir sharoitlarda ham oʻsish va rivojlanishga erisha oladi. Asarning asosiy gʻoyasi — intilish va bardoshlilik. Muallif shuni taʼkidlaydi har bir toʻsiq rivojlanish bosqichi, ichki kuch va sabr orqali har qanday qiyinchilikni yengish mumkin. Haqiqiy oʻsish eng qiyin sharoitda yuz beradi. “Intilish” asari insonni taslim boʻlmaslikka undaydi. Oʻktam Saidov bu asar orqali shuni koʻrsatadiki, haqiqiy kuch tashqi sharoitda emas, balki insonning ichki irodasi va harakatida mujassam.

Asarlari orasida “Istigʻfor” (120x200 mato akril) asari chuqur ruhiy-falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Asarning markazida turgan katta daraxt inson hayoti va uning ruhiy holatini ifodalaydi. Daraxt tanasining mustahkamligi hayot davomiyligini bildirsa, barglarining deyarli toʻkilib ketgani insonning maʼnaviy sinovlari, yoʻqotishlari yoki tavba qilish zaruratini anglatadi. Eng yuqori shoxlarda qolgan uch dona barg alohida eʼtiborga loyiq. Bu uchlik koʻpincha ramziy maʼnoda umid, iymon, sabr kabi tushunchalarni anglatadi. Yaʼni, inson qanchalik ogʻir holatga tushmasin,

unda baribir oz bo'lsa-da yaxshilik va najot imkoniyati saqlanib qoladi. Asarda atigi uchta rang ishlatilgani uning g'oyasini yanada kuchaytiradi.

Qizil rang (yer va daraxt tanasi) hayotiy energiya, og'riq, kurash va ba'zan gunoh ramzi. Bu rang asarga keskinlik va dramatism beradi.

Sariq (oltinrang barglar) o'tgan umr, tajriba, qadriyat va yo'qotilgan imkoniyatlarni bildiradi. Yerda tovlanib yotgan barglar o'tgan hayotning izlari sifatida talqin qilinadi.

To'q yashil fon sokinlik, tabiat abadiyligi va umid fonini yaratadi. Bu rang umumiy kompozitsiyani muvozanatlashtiradi.

“Istig'for” asari insonning ichki poklanishi va tavgaga kelishi haqidagi falsafiy fikrni ilgari suradi. Daraxtdagi barglarning to'kilishi xatolar va o'tgan umrni, qolgan uch barg esa kechirim va yangilanish imkoniyatini bildiradi. O'ktam Saidov bu asar orqali shuni ko'rsatadiki, inson hayotida qanchalik yo'qotish va xatolar bo'lmasin, har doim poklanish va yangidan boshlash imkoniyati mavjud. “Istig'for” bu umidsizlik emas, balki ichki uyg'onish va najot haqidagi asar.

O'ktam Saidov ijodining yana bir muhim yo'nalishi o'zbek xalq maqollariga asoslangan badiiy kompozitsiyalardir. Bu turkum rassomning milliy tafakkurga bo'lgan chuqur hurmatini va uni zamonaviy san'at tilida ifodalash mahoratini ko'rsatadi. O'zbek xalq maqollari qisqa, ammo chuqur ma'noga ega hikmatli iboralardir. Rassom ushbu hikmatlarni vizual obrazlarga aylantirish orqali ularni yangi badiiy talqinda namoyon etadi. Ramziylik kuchli obrazlar bevosita emas, balki ishora orqali ma'no beradi. Minimalizm ortiqcha tafsilotlardan qochiladi, asosiy g'oya markazda bo'ladi. Dekorativlik va stilizatsiya xalq amaliy san'ati elementlari seziladi. Har bir maqol alohida kompozitsion yechimni talab qiladi. Rassom matnni tasvirga aylantirishda ritm, muvozanat va rang orqali ma'noni kuchaytiradi. Ko'pincha bo'shliq (fon) ham mazmunning bir qismi sifatida ishlatiladi.

Rassom ijodida maqollar asosida yaratilgan asarlar milliy tafakkur va ramziy ifodaning yorqin namunasi hisoblanadi. “Boshim ko'kka yetdi” asari ham shular jumlasidan bo'lib, u turkiy xalqlarning madaniy birligi va ruhiy yuksalishini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Asarda tasvirlangan turli milliy do'ppilar turkiy xalqlarning rang-barangligi, o'ziga xosligi va boy madaniyatini anglatadi. Har bir bosh kiyim alohida xalqning tarixi va an'alarini eslatadi, ammo ularning bir kompozitsiyada jamlanishi umumiy ildiz va birlik g'oyasini kuchaytiradi. Ko'kka bo'y cho'zgan muhtasham gumbazli binolar esa yuksalish, taraqqiyot va ma'naviy meros ramzi. Gumbazlar odatda ilm, din va madaniyat markazlari bilan bog'liq bo'lib, bu yerda ular xalqning tarixiy buyukligini ifodalaydi. Orqa fon moviy osmon, oppoq bulutlar va uchayotgan qaldirg'ochlar bilan tasvirlangan. Ko'm-ko'k osmon erkinlik va cheksizlik timsoli bo'lsa oppoq bulutlar poklik va beg'uborlikni bildiradi. Qaldirg'ochlar tinchlik, umid va kelajakka ishonch ramzi. “Boshim ko'kka yetdi” maqoli odatda insonning

cheksiz quvonchi va faxrini ifodalaydi. Rassom bu yerda ushbu maqolni kengroq ma'noda talqin qiladi, milliy qadriyatlardan faxrlanish, tarixiy meros bilan yuksalish, turkiy xalqlar birligidan ruhiy ko'tarilish. O'ktam Saidov ushbu asar orqali oddiy maqolni chuqur falsafiy darajaga ko'taradi. "Boshim ko'kka yetdi" bu yerda faqat quvonch emas, balki milliy g'urur, birlik va ma'naviy yuksalish timsoliga aylangan.

Xulosa qilib aytganda O'ktam Saidov ijodi — bu nafaqat tasviriy san'at namunasi, balki chuqur falsafiy mushohada mahsulidir. Uning asarlarida Sharq falsafasining teranligi, ramziylik va ichki uyg'unlik g'oyalari o'ziga xos kompozitsion yechimlar orqali ifodalanadi. Shu bois rassom ijodi zamonaviy o'zbek san'atida alohida o'rin egallaydi va tomoshabinni nafaqat estetik, balki ruhiy tafakkurga chorlaydi. Rassomning har bir asari tomoshabinni faqat ko'rishga emas, balki his qilish va tafakkur qilishga undaydi. Shu jihatdan uning ijodi nafaqat estetik, balki ma'naviy qadriyat sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi